

Tillayeva Nilufar Ulug`bek qizi
Urganch Ranch texnologiya universiteti
Lingvistika (ingliz tili) 1-kurs magistranti

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA “GIPERBOLA” TASVIRIY VOSITASINING LINGVOSTILISTIK MAQOMI

Annotatsiya: Ushbu maqolada “giperbola” tasviriy vositasining universal tabiatini aniqlash, ularni leksik va semantik jihatdan chuqurroq tadqiq qilish, ingliz va o'zbek tillarida “giperbola” tasviriy vositasining verbalizatorlarining o'xshash va farqli jihatlarini o'rganish yoritilgan.

Kalit so'zlar: kognitiv tilshunoslik, konsept, semantika, giperbola, troplar, stilistika, antigiperbola.

Kirish. Bugungi kunda zamonaviy tilshunoslikda tilning ijtimoiy hodisa sifatida qo'llanilishining tadqiq e'tilishiga katta e'tibor qaratilmoqda [3]. Tilning odamlar orasidagi asosiy muloqot vositasi sifatida ahamiyati, uning muloqotdagi o'ziga xos vositachilik roli va muloqot ehtiyojlaridan kelib chiqadigan qator xususiyatlarini o'rganishga bo'lgan olimlarning qiziqishi ortib bormoqda. Umumiy tilshunoslikning stilistika yoki “uslubshunoslik” deb ataluvchi bo'limi tilni muloqot vositasi sifatida tadqiq etib, uning kommunikativ-pragmatik masalalari va muammolarini tizimli hamda izchil o'rganish vazifasini bajaradi [5].

Adabiyotlar sharxi. Ma'lumki, tilning ta'sirchanligi, jozibaliligi uning cheksiz imkoniyatlarini, uning mavjud funksional stillarda qo'llanish masalalarini sistemali va atroflicha o'rganuvchi fan tilshunoslikda “lisoniy stilistika” deb yuritiladi. Bugungi kunda lisoniy stilistikaning quyidagi turlari mavjud:

- 1) umumiy stilistika
- 2) xususiy stilistika
- 3) qiyosiy stilistika

Umumiy va qiyosiy stilistika umumiy stilistikani zarur va muhim lisoniy material bilan ta'minlab, umumiy stilistika nazariyasini ishonchli va asosli dalillar bilan boyituvchi lingvistik yo'nalishdir. Shu bilan birga, dunyo tilshunosligida yana bir yo'nalish — kognitiv tilshunoslik rivojlanmoqda va taraqqiy etmoqda [1]. Ushbu yo'nalishning asosiy tahlil obyekti til vositasida gapiruvchi yoki yozuvchi shaxsning obyektiv borliqni anglash jarayonida tilning ahamiyati, shuningdek, tilning shakllanishi, rivojlanishi va muloqot vositasi sifatidagi qo'llanilishida kognitiv omillarning roli bilan bog'liq. Kognitiv tilshunoslik inson omilining betakror o'rnini, obyektiv dunyo haqidagi bilimlar tizimining konseptualizatsiya va kategorizatsiya jarayonlari orqali til vositasida aks ettirish usullari, texnikasi va vositalarini ilmiy tadqiq etishga qaratilgan [2].

Tahlil va natijalar. “Giperbola” stilistik vositalar orasida eng keng tarqalgan va universal ahamiyatga ega bo'lgan vositalardan biridir. Muloqot jarayonida so'zlovchi suhbatdoshiga kuchli ta'sir o'tkazish maqsadida o'zining kommunikativ-pragmatik niyatini amalga oshirish uchun “giperbola konseptual semantikasi”ni to'liq aks ettirishga intiladi. Bu jarayon ko'pincha biror predmet yoki hodisaning muayyan xususiyatlarini mubolag'a qilish zarurati bilan bog'liq bo'ladi. Giperbolaning universal tabiati uning lingvokognitiv asosiga tayanadi, ya'ni “giperbola konseptual semantikasi” har bir sog'lom fikrlovchi inson tafakkurida mavjud bo'lib, muayyan sotsium tomonidan me'yorlashtirilgan idrokiy hodisadir. Shu sababli, bunday semantika har qanday jonli tilda maxsus verbal va noverbal vositalar tizimi orqali ifodalanadi. Giperbola stilistik vositasi yordamida nutqni vaziyatga mos, jozibali, ta'sirchan va ifodali qilishga erishiladi. Giperbola haqida maxsus adabiyotlarda bir qator tadqiqotlar mavjud bo'lib, ular asosan giperbolaning turli jihatlariga oid masalalarni an'anaviy usullarda o'rganishga bag'ishlangan. Ushbu tadqiqotlarda ko'pincha asosiy e'tibor obyektiv borliqdagi turli predmetlarning tasvirini

“mubolag‘alangan semantika” orqali ifodalovchi giperbolaning funksional-stilistik xususiyatlarini yoritishga qaratiladi.

Mazkur adabiyotlarga tayanib, xulosa qilish mumkinki, giperbolaning asosini (yoki falsafiy poydevorini) badiiy (prozaik va poetik) yoki kundalik nutqdagi mubolag‘a, ya’ni bo‘rttirish tashkil etadi. Bo‘rttirishning mazmuni zamonaviy lingvistika va adabiyotshunoslik lug‘atlari, ensiklopediyalar hamda boshqa ilmiy izlanishlarda o‘z ifodasini topgan. Giperbolaga oid ilmiy ishlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, aksariyat tadqiqotchilar giperbolani “stilistik figura” sifatida tasniflaydilar. Ba’zi hollarda esa giperbola “trop” deb talqin qilinadi, ayrim tadqiqotchilar uni “stilistik vosita” deb ataydilar, boshqalari esa uni “obrazli iboralar” qatoriga kiritadilar. Yana bir guruh olimlar giperbolani ta’sirchanlik vositasi sifatida tavsiflaydilar va hokazo.

Shuni ta’kidlash kerakki, giperbola va unga yaqin hamda uyqash bo‘lgan hodisalar nazariyasining eng kam ishlangan masalasi bu giperbolaga tamoman teskari bo‘lgan konseptual semantika, ya’ni o‘ta kichraytirish yoki kamaytirish semantikasi’ni ifodalash uchun maxsuslashgan til hodisalarining maqomi va ularni qanday talqin qilish masalasi bo‘lib qolmoqda. Ba’zi bir olimlar obyektiv borliqdagi voqelikning sifat, miqdor daraja kabi tavsifini “o‘ta kichraytirish” yoki “o‘ta kamaytirish”, masalan jimjiloqdek, tirnoqcha, mitti, zig‘rdek, bir qultum suv bilan yutib yuborgudek va h.k.larni giperbolaning bir ko‘rinishi deb hisoblaydilar.

Giperbola bilan predmet jihati tavsifini “o‘ta kichraytirish (o‘ta kamaytirish) hodisalari bir - biriga ma’lum jihatdan yaqin va umumiy bo‘lsada, ular o‘rtasida tubdan farq qiladigan lingvokognitiv, struktural-semantik, mazmuniy-semantik, kommunikativni-pragmatik, psixolingvistik va sotsiolingvistik jihatlar, qirralar mavjud ekanligiga urg‘u bergan holda, giperbola ifodalaydigan, vaholanki ifodalashi lozim bo‘lgan “o‘ta kuchaytirish (o‘ta kattalashtirish), ya’ni “mubolag‘alashtirish”ni, uning aksi bo‘lgan “o‘ta kichraytirish (o‘ta kamaytirish), ya’ni “antigiperbolizatsiya” emasligidan kelib chiqib, “o‘ta kichraytirish (o‘ta kamaytirish)”ni giperbolaning antipodi deb talqin qilishga to‘liq asos bor, ya’ni u antigiperboladir. Shunday qilib, giperbolani unga yaqin va uyqash bo‘lgan meyozis, litota, metabola, antigiperbola, shuningdek kuchaytirish, grotesk kabi stilistik hodisalardan aniq farqlab olish kerak.

Xulosa. Turli konseptlar yoki konseptual semantikalar orasida kognitiv stilistik konseptlardan biri bo‘lgan “giperbola konsepti” universal xususiyatga ega konseptlar qatoriga kiradi. Ushbu konsept til so‘zlovchisi tomonidan, vaziyatga mos ravishda, ataylab va ko‘pincha mubolag‘asiz ifoda etilishi imkonsizdir. Bu esa giperbola konseptining kommunikativ nuqtayi nazardan ham muhim va zarur semantika ekanligini ko‘rsatadi.

Giperbolaga tegishli barcha sinonimik, omonimik, giponimik, giperonimik va paronimik munosabatlar giperbola konsepti maydoni doirasida uning komponentlari orqali amalga oshiriladi va bu jarayon ushbu tizimning qonuniyatlariga asoslanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Qoraboyev J.B Giperbolaning lingvistik maqomi va muolag‘alashgan semantikali frazeologik birliklar//Tilshunoslikdagi yangi yo‘nalishlar va ularning muammolari.-Toshkent, 2015. 74-75-b.
2. Кунин А.В. Фразеологические интенсификаторы в современном английском языке./ И.Я., 1960
3. Крысин Х.П. Гипербола в русской разговорной речи. Проблемы структурной лингвистики. 1988, 9-11.
4. Сапаева, Д. Н. (2021). ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА ДЕРМАТОВЕНЕРОЛОГИК АТАМАЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ МОРФОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. *MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS*, 68.

5. Рузметов, Х. К., & Сапаева, Д. Н. (2016). Жорж Дюруа: феномен" Милого друга". *Молодой ученый*, (17), 555-557.
6. Sapayeva, D. N. (2023). Compounding in Various Types of Discourses. *Nexus: Journal of Innovative Studies of Engineering Science*, 2(9), 9-12.